

JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
MUTAXASSISLARINING ILMIY- TADQIQOTCHILIK  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR  
ETUVCHI OMILLAR

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF  
RESEARCH COMPETENCE OF PHYSICAL  
EDUCATION AND SPORTS SPECIALISTS

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich, associate professor Uzbek state university of physical culture and sports, pedagogical sciences doctor of philosophy (PhD)

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ НАУЧНО-  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ  
СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ  
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

Якубов Фазлиддин Мухитдинович, доцент Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

*Annotatsiya:* Jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlanirish ularning nazariy va amaliy bilimlarini kengaytirish, mustaqil ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalarini shakllantirish hamda fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlash imkonini beradi.

*Kalit so'zlar:* jismoniy tarbiya, sport, sport mutaxassislari, ilmiy tadqiqot, ilmiy muammo, kompetentlik, tadqiqotga tas'sir etuvchi omillar, ilmiy yondashuv.

*Abstract:* The development of research competence of specialists in the field of physical culture and sports allows expanding their theoretical and practical knowledge, forming the skills of independent scientific research, and ensuring the integration of science and practice.

*Key words:* physical education, sports, sports specialists, scientific research, scientific problem, competence, factors influencing research, scientific approach.

*Аннотация:* Развитие научно-исследовательской компетентности специалистов в области физической культуры и спорта позволяет расширить их теоретические и практические знания, сформировать навыки самостоятельного научного исследования и обеспечить интеграцию науки и практики.

*Ключевые слова:* физическая культура, спорт, специалисты в области спорта, научное исследование, научная проблема, компетентность, факторы, влияющие на исследование, научный подход.



<https://orcid.org/0009-0007-9591-9739>

e-mail:  
[fazliddinyaqubov46@mail.com](mailto:fazliddinyaqubov46@mail.com)

**KIRISH.** Bugungi kunda sport ilmiy asosda rivojlanib, sport sotsiologiyasi, sport tibbiyoti, fizioligiysi, psixologiyasi va pedagogikasi kabi sohalarda yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy sport texnologiyalarining rivojlanishi, sport tahlili va individual yondashuv asosida mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirish kabi masalalar sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, sport sohasi vakillarining ilmiy izlanish olib borish, yangi innovatsion metodlarni ishlab chiqish va joriy etish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lif jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda birinchi navbatda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, baholash dolzarb hisoblanadi[1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Zamonaviy jamiyatda ilm-fan va texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, oly ta'lif tizimining dolzarb vazifalaridan biri bitiruvchilarning ilmiy-tadqiqot qobiliyatini shakllantirishdir. Zamonaviy mutaxassis uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil izlash, kasbiy faoliyatning nazariy asoslarini tashkil etuvchi fundamental bilimlarni o'zlashtirish, yangi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-tadqiqot qibiliyatni mutaxassisning kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorgarligi tarkibidagi yetakchi komponentlardan biriga aylanadi. Shu sababli, ilmiy-tadqiqot qibiliyatini rivojlantirish masalasi oly ta'lif muassasalariga qo'yilayotgan dolzarb talablar qatoriga kiradi. Ilmiy-tadqiqotchilik

kompetentligi – bu o'z sohasidagi muammolarni tahlil qilish, tushunish va hal qilish uchun ilmiy usullar va yondashuvlardan foydalanish imkoniyating mavjudligidir. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligiga ega mutaxassislarini tayyorlash alohida ahamiyatga ega.

I. A.Zimnyayaning fikriga ko'ra, "ilmiy tadqiqotchilik kompetentligi – bu tadqiqot faoliyati natijasi va mezoni bo'lib, ular turli tadqiqot vazifalarini bajarish jarayonida shakllanadi. Bularga mustaqil kuzatishlar, tajribalar o'tkazish qobiliyati kiradi"[2]. N.B.Shumakovning ta'rificha, tadqiqot faoliyati quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi:

- Bilish (tanqidiy tahlil) ko'nikmalar;
- Axborot makonida yo'l topa olish;
- O'z bilimlarini mustaqil ravishda shakllantirish;
- Turli sohalardagi bilimlarni uyg'unlashtirish;
- Tanqidiy fikrlash [3].

### MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish, sport sohasidagi ilmiy va amaliy ishlanmalarni yanada sifatli va samarali qilish uchun muhimdir[4]. Ularning kompetentligini oshirish nafaqat ilmiy ishlanmalarga, balki jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish ko'plab omillarga bog'liq. Bu omillar tashkiliy, pedagogik, innovatsion-texnologik, motivatsion va xalqaro jihatlarga ham bo'linadi. Mazkur omillarni uyg'unlashtirib, sport sohasida chuqur ilmiy-tadqiqot kompetentligini shakllantirish mumkin.

Omillar	Ta'sir qilish mexanizmlari
Tashkiliy-huquqiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar</li> <li>- Universitetlar va ilmiy markazlarda tadqiqotlarga oid grant va loyihalar mavjudligi</li> <li>- Davlat va nodavlat tashkilotlarining ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash investitsiyalari</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ilmiy darajalar va unvonlarni olish uchun belgilangan talablar</li> </ul>
<b>Pedagogik omillar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Sport sohasida ilmiy-tadqiqot metodologiyasini o'rgatuvchi ta'limgasturlarining mavjudligi</li> <li>- Innovatsion pedagogik texnologiyalar va tadqiqot metodlarini qo'llash</li> <li>- Murabbiy va pedagoglarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorligi</li> <li>- Ilmiy rahbarlar va mentorlarning yetarli bo'lishi</li> </ul>
<b>Innovatsion-texnologik omillar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Zamonaviy sport texnologiyalari va laboratoriylar mavjudligi</li> <li>- Sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari</li> <li>- Ilmiy ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati</li> <li>- Online ta'limgasturlarida ilmiy-tadqiqot kurslarining mavjudligi</li> </ul>
<b>Motivatsion-psixologik omillar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqish va shaxsiy motivatsiya</li> <li>- Ilmiy izlanishlarga jalb etish uchun rag'batlantirish tizimi (grantlar, mukofotlar)</li> <li>- Tadqiqot olib borish uchun sharoit va vaqt yetarliligi</li> <li>- Tadqiqot natijalarining amaliyotda qo'llanishi va natijalarning e'tirof etilishi</li> </ul>
<b>Ijtimoiy va xalqaro omillar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xalqaro hamkorlik va ilmiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlari</li> <li>- Ilmiy anjumanlar, seminarlar va konferensiyalarda ishtiroy etish</li> <li>- Sport sohasida ilg'or xalqaro tajribalarni o'rghanish va qo'llash</li> <li>- Xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish va qo'shma tadqiqotlar olib borish</li> </ul>

**XULOSA.** Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish, sohaning yuqori natijalariga erishishi uchun zaruriy omil hisoblanadi. Bu omil orqali mutaxassislar nafaqat sportni rivojlantirishda, balki mamlakatning jismoniy salomatlik tizimini yaxshilashda, xalqaro sport musobaqalarida muvafqaqiyatlarga erishishda ham muhim rol o'ynaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Хуторской, А.В. Определение общепредметного содержания и ключевых компетенций как характеристика нового подхода к конструированию образовательных стандартов Электронный ресурс. <http://www.eidos.ru/journal>. – Дата доступа: 29.03.2021.

2. Зимняя И.А. Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблеме образования? (теоретико-методологический аспект) // Высшее образование сегодня. – 2006. – №4. – С. 20–27.
3. Шумакова Н.Б. Развитие творческой активности школьников. М.: Педагогика, 1991.– 271 с.
4. Прошкин В.В. Сущностные характеристики интеграции научно-исследовательской и учебной работы в университетской подготовке будущих учителей / В.В. Прошкин // Вестник ЛНУ им. Тараса Шевченко. – №22 (257). – Ч. VI. – 2012. – С. 77-83.